

# Kimyo fanlarini o‘qitishda rolli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari

Mansurbek Muxtor o‘g‘li Xayrullayev  
Ilmiy rahbar: Azima Odiljon qizi Kamalova  
Namangan davlat pedagokika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda rolli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni dars jarayoniga faol jalg qilish orqali bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, murakkab va mavhum tushunchalarni osonroq anglash uchun ushbu metodning qo‘llanilishi muhimdir. Maqolada rolli o‘yinlarning o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli ham yoritiladi. Shu bilan birga, bu metodning kimyo fanidagi ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** kimyo fani, rolli o‘yinlar, zamonaviy ta’lim tizimi, pedagokik imkoniyatlar, ijodiy va tanqidiy fikrlash, mavhum tushuncha, ko‘nikmalar, metod, jamoaviy ishlash, nazriy tushuncha, pedagokik texnologiya, didaktik o‘yin

## Pedagogical possibilities of using role-playing games in teaching chemistry

Mansurbek Mukhtar oglu Khairullayev  
Scientific supervisor: Azima Odiljon kizi Kamalova  
Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article analyzes the pedagogical possibilities of using role-playing games in the teaching of chemistry. Role-playing games increase the interest of students and help them acquire knowledge effectively by actively involving them in the learning process. It is especially important to use this method to understand complex and abstract concepts more easily. The role of role-playing games in the development of students' creative and critical thinking, communication and team work skills is highlighted in the article. At the same time, the importance of this method in increasing the effectiveness of education in chemistry, its role in strengthening students' practical skills is shown.

**Keywords:** chemistry, role-playing games, modern education system, pedagogical opportunities, creative and critical thinking, abstract concept, skills, method, teamwork, theoretical concept, pedagogical technology, didactic game

Kirish: Zamonaviy ta'lif tizimida o'quvchilarning qiziqishi va bilim olish jarayonini yaxshilash maqsadida turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, kimyo fani murakkab nazariy tushunchalarga boy bo'lgani sababli, darslarda rolli o'yinlardan foydalanish samarali o'qitish usullaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu tezisda kimyo fanini o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanishning afzalliliklari va ahamiyati tahlil qilinadi.

An'anaviy o'qitish usullari ba'zan o'quvchilarga kimyo fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirishda yetarli yordam berma olmaydi. O'quvchilar mavzularni passiv ravishda o'zlashtirib, ularni amaliyotga tatbiq qilishda qiynaladi. Rolli o'ylar esa o'quvchilarni o'qitish jarayonida faol ishtirokchi sifatida jalg etib, mavzuni chuqurroq tushunishiga ko'mak beradi. Rolli o'ylar ta'lif jarayonida o'quvchilarni qiziqtiradigan, ularning darsga faol ishtirokini ta'minlaydigan samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kimyo fanini o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanish mavhum tushunchalarni yengilroq tushunishga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Quyidagi kelitrilgan maqola orqali biz kimyo fanida rolli o'yinlardan foydalanish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va bu usulning o'quvchilar bilimini mustahkamlashga ta'sirini tahlil qilishni

Maqsadi: Ushbu maqolani yozishdan maqsad - kimyo fanini o'qitishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik metodlar, xususan, rolli o'yinlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rghanishdir. Kimyo fani ko'pincha abstrakt va qiyin tushunchalarga boy bo'lgani uchun, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish va ularga murakkab tushunchalarni yengilroq o'zlashtirish yo'llarini izlash zarurdir. Rolli o'ylar orqali o'quvchilarni o'qitish jarayoniga faol jalg etish, ularning ijodiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, mustaqil va jamoa bo'lib ishlash qobiliyatlarini shakllantirish maqolaning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Shu bilan birga, bu usul yordamida o'quv jarayonini yanada samarali qilish va ilg'or pedagogik uslublarni ta'lif tizimida keng qo'llash uchun ilmiy asos yaratish ham nazarda tutilgan. Rolli o'ylarning ta'lif jarayonidagi o'rni: Rolli o'ylar o'quvchilarning mavzu bo'yicha bilimlarini faol ravishda amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Bu metod ko'nikmalarni rivojlantirish va jamoaviy hamjihatlikni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Kimyo fanida rolli o'ylar: Kimyo fanidagi rolli o'ylar, masalan, turli atom va molekulalar roli orqali kimyoviy reaksiyalarni jonlantirish, mavzularni oson va

qiziqarli usulda o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar bir-biriga turli atomlar rolini berish orqali kimyoviy bog‘lanishlarni sahnalashtirishlari mumkin.

Metodologik asoslari: Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv - O‘quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilib, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. Didaktik o‘yin metodlari - O‘quvchilarni o‘yin orqali murakkab tushunchalarni osonroq tushunishlarini ta’minlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv - Har bir o‘quvchining qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olishni maqsad qiladi. Integrativ yondashuv - Kimyo fanini boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali kengroq tushuncha beradi. Kommunikativ yondashuv - Jamoa bo‘lib ishslash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bu metodologik yondashuvlar rolli o‘yinlarning ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o‘qitishda rolli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi va bilimlarni yanada samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Kimyo kabi mavhum va ko‘pincha murakkab tushunchalarga ega fanlarda o‘quvchilarning darsga faol jalb qilinishi tushunchalarni osonroq anglashga imkon yaratadi. Rolli o‘yinlar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini bevosita o‘yin orqali sinovdan o‘tkazib, turli laboratoriya rollarida harakat qilish orqali mavzularni amaliyotda sinab ko‘radilar. Bu o‘z navbatida, nazariy bilimlarni real hayotdagi vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, o‘quvchilarda muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoada ishslash qobiliyatlarini rivojlanadi. Rolli o‘yinlarning kommunikativ jihatlari o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi va ular o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish hamda qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, rolli o‘yinlar o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olib, har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. O‘yinlar davomida ular o‘z qiziqishlarini amalda sinab ko‘rib, ta’lim jarayoniga yanada chuqurroq sho‘ng‘iydilar, bu esa o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, rolli o‘yinlardan foydalanish kimyo fanini o‘qitishda ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish va ularda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun innovatsion va zamonaviy pedagogik usul sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta’lim tizimida ushbu metodning qo‘llanilishi o‘quv jarayonini yanada boyitib, interaktiv va qiziqarli shaklga aylantiradi. Kimyo fanini o‘qitishda rolli o‘yinlardan foydalanish an’anaviy usullarga nisbatan ko‘proq samaradorlik ko‘rsatdi. Bu metod o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va dars jarayonini interaktiv qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning rolli o‘yinlarda faol ishtiroki ularga mavzuni chuqurroq anglash va bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadaliyev, A. (2019). Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. Tashkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Tursunov, B. R. (2021). Kimyo ta'limida interaktiv usullarni qo'llash. O'quv qo'llanma. Tashkent: Universitet nashriyoti.
3. Xoliqova, Z. (2020). STEM ta'limi va rolli o'yinlar orqali fanlarni o'rgatishning samaradorligi. Ta'lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar konferensiyasi materiallari. Nukus.
4. Aminova, G. S. (2018). "Rolli o'yinlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish." O'zbekiston pedagogika ilmiy jurnali, 4(3), 55-63.
5. Shodihev, I. K. (2017). "Ta'limda yangi metodlar: rolli o'yinlar va amaliy darslar." Fan va texnika yangiliklari, 3, 22-28